

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH USLUBIYATI KAFEDRASI



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
_____ dots. Musayev A.
“ ____ ” _____ 2012 yil

**5141100 - O‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

FE‘LNING YASALISH USULLARI USTIDA ISHLASH

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Umarova Umida
Ilmiy rahbar: p.f.n.Q.M.Yadgarov
Taqrizchi: katta.o‘qit.L.Ibragimova

BMI O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH USLUBIYATI
kafedrasi yig‘ilishining qarori bilan (qaror №10, 7.05.2012)
himoyaga tavsiya etilgan.
Kafedra mudiri _____ p.f.n. Q.Yadgarov
(imzo)

Jizzax-2012

FE'LNING YASALISH USULLARI USTIDA ISHLASH

REJA:

Kirish

I BOB. O'zbek tilida so'z yasalish usullari

1.1. So'z yasalish usullari

1.2. So'z yasalish strukturasi

II BOB. Fe'llarning yasalishi

2.1. Affiksatsiya usuli bilan fe'l yasalishi

2.2. Kompozitsiya usuli bilan fe'l yasalishi

Xulosa

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojlanishni boshlagandan beri ilm – fan va milliy madaniyatimizning har bir sohasida jiddiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” deb nomlangan kitobida ta’kidlaganlaridek “O‘tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirish, uni tom ma’nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo‘lida ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlol yillarida o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar tilimizning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari, yangi-yangi lug‘atlar ko‘plab chop etilayotganligi jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda”¹. ushbu risolada yurtboshimizning ona tilimizning istiqlolga bo‘lgan davrdagi holati va mamlakat mustaqilligidan keyingi taraqqiyot omillari xususidagi qimmatli fikrlari o‘rin olgan. Shuningdek, risola til ilmi tadqiqotlari oldiga bir qator vazifalar ham yuklaydi. Xususan, “Ajdodlarimizdan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarurligi, ona tilimizni har tomonlama mukammal o‘rganishimiz, tilimizning beqiyos imkoniyatlarini kashf etishga tinimsiz intilishimiz lozimligi,

¹ Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” Toshkent, 2008 yil

chunki” o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz² ekanligi yurtboshimiz tomonidan alohida ta’kidlangan ilm ana shunday ulug‘vor maqsadlarga xizmat qilishi lozim.

Ta’lim sohasida qilinayotgan barcha islohotlar ta’lim jarayonini tubdan yaxshilashga, ta’limning eng samarali metod va usullarini ishlatishga va shu asosda o‘quvchining ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan.

Ona tili darslari shunday qurilishi kerakli til hodisalarini o‘rganish o‘quvchi uchun majburiyat emas, balki ixtiyoriy, sevimli mashg‘ulotga aylansin, uni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga undasin, o‘zligini nomoyish etish imkoniyatini yaratsin. Bu esa ta’limning noan’anaviy usullaridan unumli foydalanish, ayniqsa ta’limiy o‘yinlarni keng qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Bu borada esa hali ma’lum bir tartibda solingan metod va o‘yin-topshiriqlari sistemasi to‘la ishlab chiqilmagan. Bu esa morfologiyani o‘qitishni yanada murakkablashtiradi.

Mazkur ish yuqoridagilarni hisobga olgan holda fe’llarning yasaliş usullari ustida ishlashda qo‘llaniladigan o‘yin-topshiriqlari silsilasini ishlab chiqish, ularni dars jarayonida qo‘llash va shu asosda faol o‘quvchi shaxsini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bu o‘z navbatida tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

² Karimov I.A. “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent “Sharq”. 1997 yil 7-beti.

BMIIlar tahlili. Mavzuga yaqin bo‘lgan tadqiqot ishlari bilan tanishish jarayonida gap bo‘laklari bo‘yicha bir qancha ishlar qilinganini guvohi bo‘ldik. Jumladan: 2008 yilda magistranti X.Abduxoliqovanning “Tohir Malik asarlarida ikkinchi darajali bo‘limlarning qo‘llanishi” mavzusidagi tadqiqot ishi bilan tanishdim. Tadqiqotda o‘zbek tili grammatikasida gap bo‘laklarining tuzilishi va darajalanishi, gap bo‘laklarining shakliy va mazmuniy tuzilishi va ular orasidagi munosabat, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar va ularning gapdagi vazifasi haqida fikr yuritilgan.

Ushbu tadqiqot ishidan bizning ishimizning farqli jihati shundaki, unda gap bo‘laklarini T.Malik asarlarida qo‘llanilishi haqida fikr yuritilgan bo‘lsa, biz tadqiq qilayotgan ish gap bo‘laklarining markazi bo‘lgan kesim haqida nazariy ma’lumot berish emas, balki ularni noan’anaviy usulda o‘tish haqidadir.

Bundan tashqari N.Omonova, G.Fayziyeva, A.Suvonqulova, Z.Hadjayevalar ham gap bo‘laklari haqida tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Biz tadqiq qilayotgan ish mavzusi yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqot ishlaridan o‘zining amaliy ahamiyati, o‘quvchilarda darsga, umuman, ona tili faniga qiziqishni uyg‘otishga qaratilganligi bilan farq qiladi.

Ishning obekti, predmeti va manbalari. Fe’llarning yasalish usullarini noan’anaviy tarzda o‘tishni tashkil qilish tadqiqotning obektini tashkil qiladi.

Fe'llarning yasaliş usullarini o'tishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish jarayoni esa tadqiqotning predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqotining manbaalarini turli xil pedagogik, ilmiy-metodik adabiyotlar va darslik qo'llanmalar tashkil etadi: (Ular adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan).

BMIga qo'llangan metodlar. Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida qator metod va usullar ishlab chiqildi. Ishda "Kim ko'p sotib oladi", "Ekipaj", "Uchburchak", "Sendan ugina, mendan bugina", "Aniqlang, baho bering", "Ijodxon", "Sirli kataklarni to'ldir", "Ha, Yo'q", "Sayohat", "Nimaga o'xshaydi" kabi ko'plab o'yin-topshiriqlarni dars jarayonida tadbiq qilish metod va usullari ishlab chiqildi.

BMI ni bajarishdan maqsad va vazifalari. So'z yasaliş mavzusi o'tish jarayonida amaliy maqsadlarga bo'ysundirilgan ta'limiy o'yinlardan foydalanish va ularning dars samaradorligini oshirishdagi o'rnini belgilash tadqiqotning asosiy vazifasi qilib belgilandi. Bu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi:

- ona tili darslarida ta'limiy o'yinlardan foydalanishning amaliy ahamiyatini belgilash;

- fe'l yasaliş mavzusini o'tishda qo'llaniladigan usul, metod va o'yinlarni tashkil etishning samarali yo'llari, vazifalari va usullarini aniqlash;

- fe'l mavzusi yuzasidan ta'limiy o'yinlar, usullar, metodlar silsilasini ishlab chiqish;

- ishlab chiqilgan metod, vosita va usullar hamda o‘yin – topshiriqlarni amalda sinovdan o‘tkazish.

BMIning amaliy ahamiyati. Mazkur ish o‘zbek tilidan o‘rta umumta’lim maktablari darsliklarining morfologiya bo‘limiga yangiliklar kiritishda, shuningdek, ona tili mashg‘ulotlarini tashkil etishda hamda noan’anaviy dars shakllarini tashkil etishda boy material bo‘lib xizmat qiladi.

BMIning tuzilishi va hajmi. Ushbu BMImiz kirish, uch asosiy bob, xulosa va adabiyotlar (-----ta) ro‘yhatidan iborat bo‘lib ----- sahifani tashkil etadi.

1-bob. O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISH USULLARI

Har bir tilning so‘zlari, leksikasi doim harakatda bo‘lib, natijada, uning tarkibi turli-tuman o‘zgarishlarga uchraydi: ba’zi so‘zlar eskirib, faol qo‘llanishdan chiqadi, yoki qo‘llanishi chegaralanib, bora –bora iste’moldan qoladi; yangi so‘zlar paydo bo‘lib, ular leksikani to‘ldiradi; ayrim so‘zlarning ma’nolarida o‘zgarish yuz beradi va boshqalar.

Leksikadagi taraqqiyotning eng asosiy yo‘llari boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish va so‘z yasashdir.

So‘z o‘zlashtirish deganda bir tildan ikkinchi bir tilga bevosita leksema olish tushuniladi. So‘z o‘zlashtirish so‘z yasashga nisbatan ancha faol hisoblanadi, chunki so‘z o‘zlashtirish so‘z yasashga nisbatan oson kechadi. So‘z o‘zlashtirishning qonun-qoidalari tilshunoslikning leksikologiya bo‘limida o‘rganiladi. So‘z yasalishi esa tilshunoslikning alohida bo‘limi bo‘lib, u ikki xil ma’noda qo‘llanadi: 1) umuman yangi leksik ma’noli so‘z hosil qilish; 2) tilshunoslikning so‘z yasalishi bilan bog‘liq hodisalarni o‘rganuvchi bo‘limini bildiradi.

So‘z yasalishi, umuman, qanday usul, qanday vosita bilan bo‘lmasin yangi leksik ma’noli so‘z hosil qilishdir. Masalan, ish-chi (-chi qo‘shimchasi bilan yasalgan), gulbeor (2 yasovchi asosning birikuvidan yasalgan) va boshqalar.

So‘z yasalishi tilshunoslikning ayrim bir bo‘limi sifatida so‘zlarning yasalishini (yasama so‘z), yangi leksik birlik hosil qilishning qonun-qoidalarini, vositalarini, so‘z yasalishi

strukturasini (tarkibini) tekshiradi. Demak, bu sohaning obekti soʻzdir.

Soʻzni leksikologiya ham, grammatika ham tekshiradi. Lekin bu ikki xil tekshirish bir-biridan maʼlum belgilari bilan farq qiladi. Leksikologiya soʻzning semantik strukturasi, ularning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlarini, soʻzlarning oʻz yoki oʻzlashgan soʻz ekanini, soʻzlarning emosional-ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlishi kabi masalalarni oʻrganadi. Grammatika esa soʻzning shaklan oʻzgarishlarini, soʻz qoʻshilishining, soʻz birikmalarining turli koʻrinishlarini, gap va uning turlari oʻrganadi. Demak, soʻz yasallishining oʻz obekti bor.

Hozirgi oʻzbek tilida yasama soʻzlar miqdori lugʻat boyligining katta qismini tashkil qiladi. Bu yasalmalar hosil boʻlishiga koʻra *tarixiy (diaxron) va hozirgi (sinxron)* yasallishga aloqador boʻlishi mumkin. Soʻz yasallishining tahlilida bu ikki hodisani farqlash lozim.

Soʻz yasallishi *hozirgi (sinxron)* aspektga tayanadi. Bunda til taraqqiyotining maʼlum bir davri koʻzda tutiladi. Masalan, hozirgi zamon oʻzbek tili. Bunda yasama soʻzning qismlari oʻrtasidagi munosabat jonli boʻladi, yaʼni soʻzning maʼnosini qismlarning maʼno munosabati bilan asoslash mumkin boʻladi. Masalan, *oʻr-im, ter-im, temir-chi, doira-chi, bilim-li, aql-li, randa-la, egov-la* va boshqalar.

Tarixiy (diaxron) yasallishda esa yasama soʻzning maʼnosi va shu maʼnoning ifodalanish usulini qismlarning maʼno munosabatlari orqali asoslab boʻlmaydi. Bu maʼno maxsus tekshirishlar orqali

aniqlanadi. Masalan, *o‘t-loq, tosh-loq, qum-loq, qish-loq, ov-loq* so‘zlari ko‘rinishidan o‘xshash. Bularning hammasi aslida o‘rin ma’nosini ifodalovchi –loq qo‘shimchasi orqali yasalgan. Ammo dastlabki uch so‘z yasama sanalib, morfemalarga ajraladi (*o‘t-loq – o‘tli, o‘t ko‘p joy, tosh-loq-toshli, tosh ko‘p joy, qum-loq-qumli, qum ko‘p joy*). Keyingi ikkitasi (qishloq, ovloq) bunday qismlarga ajralmaydi, chunki bularda qismlarning semantik munosabati sezilmaydigan bo‘lib qolgan. Ya’ni qishloq so‘zi fasl bildiruvchi qish so‘zi bilan bog‘lanmaydi (qish-la-q “qishda yashaydigan joy”), ovloq so‘zi endi “ov joyi, ov qilinadigan joy” ma’nosida emas, balki ma’nosi o‘zgarib “xilvat joy” degan ma’noni bildiradi.

Hozirgi (sinxron) so‘z yasalişhida kamida ikkita yasovchi komponent (qism) qatnashadi. Bulardan hech bo‘lmaganda bittasi mustaqil ma’noli (narsa, belgi, harakat va sh.k) bo‘ladi. Yasama so‘zni yuzaga keltiruvchi bu qismlar yasovchilar, ularning o‘zaro munosabatidan (birikishidan) hosil bo‘lgan birlik yasalma (yasama so‘z) deyiladi.

Yasalmaning yuzaga kelishida qatnashuvchimustaqil ma’noli qism yasovchi asos (yasalmaning asosi) hisoblanadi. Bunday asos sodda yasama so‘zda bitta, qo‘shma so‘zda birdan ortiq bo‘ladi: ishchi: ish-yasovchi asos, -chi –yasovchi qo‘shimcha, ishchi – yasalma; toshko‘mir: yasovchi asos –tosh va ko‘mir, toshko‘mir – yasalma.

Yasama so‘z quyidagi qonuniyatlarga asoslanadi.

1. Agar so‘z tarkibida, ikki yasovchi qism qatnashmasa, garchi bu so‘z tarkibida yasovchi qo‘shimcha yoki mustaqil ma’noli qism

bo'lsa-da, shuningdek, soʻzning maʼnosi bilan soʻz yasalishining maʼlum tipi oʻrtasida aloqadorlik sezilsa-da, bu soʻz yasama soʻz boʻla olmaydi. Masalan, qattiq, yumshoq, silliq soʻzlariga eʼtibor bering. Bulardan yumshoq soʻzi yumsha feʼliga –q qoʻshimchasining qoʻshilishidan hosil boʻlganini sezish qiyin emas (–q qoʻshimchasining taʼsirida feʼl oxiridagi a tovushi o tovushiga oʻtgan: yumsha-q -yumshoq). Shuningdek, yumshoq soʻzi bildirgan maʼnoni yumsha va –q yasovchilari maʼnosi bilan asoslash mumkin: –q qoʻshimchasi narsaning feʼl anglatgan harakat natijasi sifatida belgisini bildiradi: yigʻ-iq, qis-iq, yup-iq, yirt-iq kabi.

Qattiq soʻzi ham aslida xuddi yumshoq soʻzi tipida yasalgan. Buni yumshoq soʻzi bildirgan maʼnoning yumshash harakati bilan bogʻliqligi, qattiq soʻzi bildirgan maʼnoning qotish harakati bilan bogʻliqligidan va ikkalasida ham bir qoʻshimchaning mavjudligidan sezib olish mumkin. Lekin yuz bergan fonetik oʻzgarish qattiq soʻzning qot feʼli bilan bogʻlanishini juda xiralashtirib, sezilmas darajaga keltirib qoʻygan. Shuning uchun bu soʻzni qismlarga ajratib boʻlmaydi.

Silliq soʻzi ham shu tipda yasalgan. Lekin yasalmalilik bu soʻzda deyarli sezilmaydi. Chunki hozirgi oʻzbek tilida “sathini ravon qilish” maʼnosidagi sili (yoki “sil”) feʼli yoʻq.

Demak, hozirgi soʻz yasalishi nuqtai nazaridan yumshoq, iliq, ochiq kabilar yasama soʻz. Lekin suyuq, silliq, quyuyq soʻzlari yasama soʻz emas.

2. Baʼzi soʻzlarda affiks qismi borligi sezilib turadi, hatto, uni boshqa qoʻshimcha bilan almashtirish ham mumkin. Bu hol mazkur

soʻzning aslida yasama boʻlganini juda aniq koʻrsatadi: tipik, tiril. Lekin bularda ham mustaqil maʼnoli qism (yasovchi asos) boʻlgani bilan ularni yasama soʻz hisoblab boʻlmaydi.

Xullas, u yoki bu soʻzning tarkibida soʻz yasovchi qoʻshimcha boʻlsa, hatto bu qoʻshimcha bir necha soʻzlar tarkibida uchrasa ham, lekin soʻz tarkibida mustaqil maʼnoli komponent (yasovchi asos) qatnashmasa, bunday soʻzlarni yasama soʻz deb boʻlmaydi. Ularning yasamaligi yo tarixiy nuqtai nazardan yoki boshqa til nuqtai nazaridan boʻladi. Masalan, gʻovla, emakla, oʻdagʻayla, tarashla soʻzlaridagi –la affiksining feʼl yasovchi affiksligi aniq. Demak, bu soʻzlar tarixan yasama feʼl. Mashinist, egoist, maishiy, moddiy, siyosiy soʻzlardagi –ist, -iy ham soʻz yasovchi affiks. Lekin bularda ham mustaqil maʼnoli komponent (yasovchi asos) yoʻq, shuning uchun yasovchi qismlarga boʻlinmaydi. Demak, yasama soʻz emas. Bularning yasama soʻz ekani qaysi tildan oʻzlashgan boʻlsa, oʻsha til nuqtai nazaridagina boʻlishi mumkin.

3. Biror soʻz tarkibida mustaqil maʼnoli qism boʻlsa ham, lekin undan qolgan qismning maʼno va vazifasi shu soʻz doirasida uqilmasligi (bilinmasligi) mumkin: koʻchmanchi, tiqmachiq, boʻgʻiz, beldamcha, zarurat, poʻstloq, quloqchin, qoldiq, bosqich, shaxsiyat, shodiyona, qoʻnalgʻa, biror (biron) va b. bularda ham mustaqil maʼnoli qism borligi sezilib tursa-da, lekin undan qolganqismning soʻz yasovchi ekani sezilmaydi, shuning uchun bunday soʻzlar ham hozirgi soʻz yasalishi nuqtai nazaridan yasama soʻz hisoblanmaydi, yasovchi qismlarga boʻlinmaydi.

4. Ba'zi so'zlar tarkibida mustaqil ma'noli qism va yasovchi affiks borligi sezilsa-da, bu so'zning ma'nosini uning qismlari ma'nosi bilan asoslab, izohlab bo'lmaydi: beozor, oqliq, sholcha, qishloq, ovloq kabilar. Bunday so'zlarni ham hozirgi so'z yasalishi nuqtai nazaridan yasama so'z deb bo'lmaydi.

Demak, ma'lum bir so'zning tarkibida mustaqil ma'noli qism yoki yasovchi affiksning, yoki har ikkisining borligi sezilib tursada, lekin bu so'zning ma'nosini ajralishi mumkindek ko'ringan qismlar ma'nosi bilan asoslab bo'lmasa, bunday so'z hozirgi so'z yasalishiga kirmaydi. Bunday so'zlar yasovchi qismlarga bo'linmaydi (bularda yasovchi asos+yasovchi affiks yoki yasovchi asos+yasovchi asos holati bo'lmaydi), ularda soddalashish yuz bergan.

Xullas, hozirgi so'z yasalishida ikki yasovchi qismning qatnashuvi, bulardan esa kamida bittasi mustaqil ma'noli bo'lishi shart. Yasama so'zning (yasalmaning) ma'nosi ana shu yasovchi komponentlarning ma'no munosabatiga asoslangan bo'ladi: *ter-im*; *ter* –yasovchi asos, *-im* –yasovchi affiks; *belbog'-li*: *belbog'* – yasovchi asos, *-li* yasovchi affiks va b.

1.1. So‘z yasalishi usullari

O‘zbek tilida so‘z yasashning vositalari har xil bo‘lib, uning turlari shunday ko‘rinishlarga ega: 1) *fonetik usul*; 2) *semantik usul*; 3) *affiksasiya (morfologik) usuli*; 4) *kompozisiya (sintaktik) usuli*.

1. Fonetik usul. Bu usul bilan so‘z yasash 2 hodisani ko‘zda tutadi: 1) so‘zning tarkibida fonetik o‘zgarish (tovush o‘zgarishi) qilish orqali yangi so‘z hosil qilish. Masalan, *bo‘r-bo‘z*, *tog‘-tosh*, *ko‘z-ko‘rmoq*, *tosh-tish* (qattqlik belgisi asosida); 2) urg‘uning o‘rnini o‘zgartirish bilan yangi so‘z yasash. Masalan, *yangi* (sifat), *yangi* (ravish), *hozir* (ravish) –*hozir* (tayyor), *tugma* (ot), *tugma* (fe‘l), *akademik* (unvon) –*akademik* (nashr turi).

2. Semantik usul. Leksik –semantik yo‘l bilan so‘z yasash so‘z ma‘nosining o‘zgarishi, ma‘noning ko‘chishi orqali yangi ma‘noli so‘zning yuzaga kelishidir.

Semantik yoki leksik-semantik usul yordamida so‘z yasash tarixiy taraqqiyot jarayonida tildagi ayrim ma‘nolar orasidagi bog‘lanishlarning yo‘qolib ketishi, so‘zning ayrim shakllarida yangi leksik ma‘noning yuzaga kelishi kabi hodisalar bilan bog‘liq. Bunday hodisa tilning ko‘p yillar davomida rivojlanishi natijasida asta-sekin yuzaga keladi: **bo‘z I**–gazlama, ip gazlama, bo‘z. Masalan: *Arqog‘ini ko‘rib, bo‘zini ol, Onasini ko‘rib, qizini ol. (Maqol)*; **bo‘z II** –*ko‘kka moyil oq rang*. Masalan: *Safidan adashgan bo‘z turna bo‘zlar. (A.Suyun)*; **bo‘z III** –ekin ekishga yaroqli, lekin uzoq vaqt ishlanmay, ekilmay yotgan yer. Masalan: *Poylab dehqon yo‘lini, bo‘rsillaydi bo‘z tuproq. (A.Suyunov)*; **bo‘z**

IV –turmush tajribasiga ega bo‘lmagan, xom bola, o‘smir. (B.Imomov). *Suluv qizing bor bo‘lsa, bo‘z bolaga, bo‘z bolaga yoqarsan.* (“*Sharq yulduzi*”); **bo‘z V** –o‘tsimon cho‘l o‘simligi –chalov. Masalan: *Sarhovuz betini chalov bosgan.* (S.Siyoev); **bo‘z VI** –qattiq, uvvos yig‘i. Masalan: *Unutmoq ham shunchami, Dunyo to‘ldi bo‘zimga* (M.Yusuf). Quyidagi so‘z ma‘nolari ham xuddi shunday hodisa tufayli yuzaga kelgan: *yupqa* (qalin emas), “yupqa qog‘oz-sifat” –*yupqa* –ovqatning nomi (ot); *ko‘k* (rang) –*ko‘k* (osmon) –*ko‘k* (rezavor) –*ko‘k* (tikishning bir turi); *kun* (sutkaning bir qismi) –*kun* (quyosh, planeta).

Semantik usul bilan yasalgan so‘zlar bir turkum doirasida *ko‘k* (osmon) *ko‘k* (rezavor); *bo‘z* (gazlama) –*bo‘z* (o‘tsimon cho‘l o‘simligi) va ot hamda boshqa –boshqa so‘z turkumlariga tegishli bo‘lishi mumkin: *yupqa*-sifat, *yupqa*-ot, *ko‘k* (rang) *ko‘k* (osmon) *bo‘z* –ot (gazlama), *bo‘z* –sifat (bo‘z bola) kabi.

3. Affiksasiya usuli. Hozirgi o‘zbek tilida so‘z yasashining keng qo‘llaniladigan eng unumli, yetakchi turi **affiksasiya usulidir**. Asosga qo‘shilib, shu asosning ma‘nosi bilan bog‘liq bo‘lgan, ammo yangi bir leksik ma‘nodagi so‘z hosil qilishda ishtirok etadigan affiks **so‘z yasovchi affiks** (qo‘shimcha) deyiladi. Yangi leksik ma‘noli so‘z hosil qilishning yetakchi vositasi bo‘lgan affiksasiya o‘zbek tilida **suffiksasiya** xarakterida bo‘ladi, ya‘ni yasovchi qo‘shimchalar yasovchi asosning oxiriga qo‘shiladi. Masalan, *terim-chi, ol-mazor, til-shunos, oq-la, ish-la, bilim-li, intizom-li* kabi. Qisman so‘z yasashda boshqa tillardan (asosan tojik tilidan) kirgan old qo‘shimchalar (prefikslar) ham qo‘llanadi.

Masalan, *ba-quvvat, bar-vaqt, be-baho, no-o'rin, be-o'xshov, be-vafo, ser-hosil* kabi. Bunday yasaliş asosan sifat turkumida uchraydi.

Soʻz yasovchi affikslar koʻpincha bir turkumdagi soʻzdan boshqa bir turkumga kiradigan yangi soʻz yasaydi. Masalan, *yoʻz, qish-ot, yoʻzgi, qishki-sifat; ish, arra-ot, ishla, arrala –feʻl; oq, yaxshi-sifat, oqla, yaxshila –feʻl; supur, oʻr-feʻl, supur-gi, oʻr-oq-ot* kabi.

Baʼzan soʻz yasovchi affiks bir turkumning oʻziga xos boʻlgan soʻz yasashi mumkin. Bu koʻproq ot turkumiga xos. Masalan, *ish-ish-chi, temir-temir-chi, arava-arava-kash (-soz); qum-qum-loq, tosh-tosh-loq, oʻrik-oʻrik-zor, til-til –shunos, adabiyot-adabiyot-shunos, oʻzbek-Oʻzbek-iston* kabi.

Soʻz yasovchi affikslar nutqda qoʻllanishi darajasiga koʻra *unumli, kam unum va unumsiz* affikslarga boʻlinadi.

Koʻplab yangi soʻzlar yasash uchun xizmat qiladigan affiks ***unumli yasovchi*** deyiladi. Masalan, *ish-chi, xizmat-chi, ov-chi, aʻlo-chi, mosla-ma, qaynat-ma, yasa-ma, koʻrgaz-ma, tinch-lik, yaxshi-lik, katta-lik, kul-gi, turt-ki, supur-gi, qish-ki, ish-la, arra-la, oq-la, bosh-la, yaxshi-la, tarash-la* kabi.

Soʻz yasashda kam qatnashadigan affiks kam unum yasovchi deyiladi. Masalan: *oʻr-oq, bosh-oq, mehnat-kash, arava-kash, suzgich, qir-gʻich, yigʻ-im, musobaqa-dosh* kabi.

Hozir yangi birlik hosil qilmaydigan affiks unumsiz yasovchi deyiladi. Unumsiz affikslar odatda bir necha soʻzdagina mavjud

bo'ladi. Masalan: *qop-ag'on, chop-ag'on, sez-gir, kes-kir, ish-chan, uyat-chan, san-a, kes-kin*.

Affiksoidlar. Affikslarning tug'ilishida shunday hol ham uchraydi: ba'zi so'zlar affiks funksiyasini bajarib, ergash morfemaga yaqinlasha boshlagan bo'lsa ham, hali affiksga aylanib yetmagan bo'ladi. Bular affiksoid sanaladi. Masalan, *bu uyda to'rt xona bor –biz ishxonada uchrashdik*. Ko'rinadiki, *xona* elementi o'rnini bilan so'z bo'lib ham qo'llanadi, affiks bo'lib ham qo'llanadi (keyingi holda o'rin bildiradigan affiksga juda yaqin keladi). U bir o'rinda o'zak morfema, boshqa o'rinda –ergash morfema vazifasida keladi: *molxona, muzxona* (chog'ishtiring: *muzlik*); *somonxona* (*o'tinxona, maktabxona* (shevalarda: *maktab* so'zidagi –ma elementining o'rin ma'nosi o'zbek tilida uqilmaydi: bu struktura o'zbek tiliga yot, shuning uchun –xona morfemasi qo'shilgan, kitob so'zi bilan bog'liq), *sartaroshxona* qiyoslang: (*sartaroshlik*). *Jon* elementi ham shunday: *jonim otam =otajonim, jon qizlar=qizlarjon, jon bolam=jonim bolam, bolajonim, jonginam=bolajonginam* kabi. O'zbek tilida affiksoidlar (ular so'z affiks=so'z deb ham yuritiladi) kam uchraydi.

4. Kompozisiya usuli. Kompozisiya yo'li bilan so'z yasash birdan ortiq yasovchi asosni ma'no va mazmun jihatidan biriktirib, yangi leksik birlik –qo'shma so'z hosil qilishdir. Qo'shma so'zning qo'shma so'zdan farqi shundaki, sodda so'zda mustaqil ma'noli qism bitta. Qo'shma so'zda esa bittadan ortiq bo'ladi. So'z yasashning bu turi o'zbek tilida eng faol usullaridan hisoblanadi. Masalan, *gulbeor, yeryong'oq, uchburchak* kabi. Qo'shma so'z bir

butun leksik ma'no –bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish – grammatik tushunchaning ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi. Demak, u bir soʻzdir. Qoʻshma soʻzning qismlari orasida grammatik aloqa boʻlmaydi. Ammo semantik aloqa bor. U har qanday soʻz birikmasida, gapda bir sintaktik vazifa bajaradi. Qoʻshma soʻzning asosiy qismi ikki komponentdan iborat boʻladi. Qoʻshma soʻzlar ot, sifat, son, ravish va qisman feʼllarda keng tarqalgan. Masalan: *oqqush, beshbarmoq, uchburchak, urtoʻqmoq, belbogʻ, bilaguzuk (ot); mehmon-doʻst, shifobaxsh, jigarrang (sifat); qaror qilmoq, ado etmoq, qoʻl qoʻymoq (feʼl); hech qachon, bir lahza, bir zum, bir nafas (ravish).*

Agar ikki yoki undan ortiq mustaqil maʼnoli morfemadan tashkil topgan qoʻshma soʻzning biror komponenti (morfemasi) hozirgi oʻzbek tilida mustaqil maʼnosini yoʻqotgan boʻlsa, bu qoʻshma soʻz qoʻshma soʻzlik xususiyatini yoʻqotadi –sodda soʻzga aylanadi. Shuningdek, mustaqil soʻz bilan koʻmakchi (asosan koʻmakchi feʼl) soʻzning birikuvi ham qoʻshma soʻz emas. Bunday qoʻshilmalar analitik shakl deyiladi. Masalan, *qalam bilan, ukam uchun, oʻqib chiqmoq, yoza boshlamoq, koʻrib qolmoq, berib kelmoq* kabi (Bu haqda feʼlning analitik shakli qismiga qarang). Shuningdek, *kechqurun, zararkunanda, odamshavanda, dardisar, astoydil* kabi soʻzlar aslida qoʻshma soʻz boʻlgan boʻlsa ham, hozirda sodda soʻz hisoblanadi.

Qoʻshma soʻz bilan soʻz birikmasining shaklan oʻxshash tomonlari bor. Ammo ular orasida ham farq bor. Ular quyidagilar:

a) qo'shma so'zning qismlari morfema, so'z birikmasining qismlari esa so'z bo'ladi;

b) qo'shma so'zning qismlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi, so'z birikmasining qismlari alohida-alohida leksik ma'no ifodalaydi;

v) qo'shma so'zning qismlari orasida sintaktik aloqa bo'lmaydi, so'z birikmasining qismlari orasida sintaktik aloqa bo'ladi *tuyaqush, oybolta, xushfe'l, qo'ziqorin –qo'shma so'z, qush do'ppili (bola), o'n qavatli (bino) –so'z birikmasi*;

g) qo'shma so'z qismlari o'z mustaqilligini (qisman yoki to'laligicha) yo'qotadi, so'z birikmasining qismlari esa o'z mustaqilligini saqlaydi;

d) qo'shma so'z qismlari yaxlit bir savolga javob bo'ladi, so'z birikmasi qismlari alohida savolga javob bo'ladi va bir gap bo'lagi vazifasida keladi.

Davrlar o'tishi bilan ayrim so'z birikmalari bir so'zga (qo'shma so'zga) aylanishi mumkin. Bunda so'z birikmasi bir ma'no –leksik ma'no ifodalaydigan bo'lib qoladi, birikma qismlari orasidagi sintaktik aloqa yo'qoladi. Natijada aslida so'z birikmasi bo'lgan birlik qo'shma so'zga aylanadi. Bu jarayon tilshunoslikda **sintaktik-leksik** usul bilan so'z yasalishi deb yuritiladi. Masalan, *qashqargul, tokqaychi, mingboshi, yurtboshi, yengiltabiat, kaltafahm, o'zbilarmonlik baribir (bari-ega-bir-kesim)*. Sintaktik –leksik usul bilan so'z yasash tarixiy (diaxron) yasalish hisoblanadi.

Ma'lumki, o`yin-topshiriqlar o`quvchilar malaka va ko`nikmalariga ko`ra, murakkablik darajasiga ko`ra guruhlanib, soddadan murakkablik dinamikasiga qarab boradi.

1. Qayta xotirlash tipidagi o`yin topshiriqlar.

Bunday o`yin-topshiriqlardan o`tganlarni mustahkamlash hamda bilim va malakalarni tekshirish darslarida ko`proq foydalaniladi. Masalan, "Atoqli va turdosh otlar" mavzusiga oid darslarni mustahkamlash maqsadida "Kim g`olib?" o`yin-topshirig`idan foydalansa bo`ladi. Buning uchun sinf ikki guruhga ajratiladi: biri atoqli otlarga, ikkinchisi turdosh otlarga misol topishadi. Ma'lum bir belgilangan vaqt ichida qaysi guruh ko`p misol topsa, o`sha guruh g`olib sanaladi.

O`qituvchi doskaga kitob, gazeta, jurnal, kundalik, surat, kinofilm so`zlarini alohida-alohida yozib qo`yadi. Sinf olti guruhga bo`linib (o`quvchilar soni hisobga olinishi zarur. Agarda guruhlarga teng bo`linmaydigan bo`lsa, guruhlar sonini kamaytirishi yoki ko`paytirishi mumkin), ulardan shu otlarga misollar yozish talab qilinadi. Guruhlarning har bir a`zosi o`ziga qarashli so`zga bitta-bittadan misol yozadi. Tez va to`g`ri yozgan guruh g`olib sanaladi. G`oliblar, albatta, rag`batlantirilishi kerak. Bunday o`yin-topshiriqlardan istalgan mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

Yoki o`quvchilarning bog`lanishli yozma nutqini sinash maqsadida "So`zlar bizdan, matn tuzish sizdan" o`yinini o`tkazish mumkin. Bunda o`quvchilarga tayanch so`z va so`z birikmalarni berib (ular doskaga yozib qo`yilishi ham mumkin), ular yordamida

bogʻlanishli matn tuzish topshiriladi, Tez va mazmunli matn tuzgan oʻquvchi gʻolib sanaladi.

DTS talablaridan biri sanalgan oʻquvchilar soʻz boyligini oshirishda izlanuvchanlik xarakteridagi oʻyin-topshiriqlarni qoʻllash yaxshi natija beradi. Bunday topshiriqlar oʻquvchilardan ijodiy faoliyat koʻrsatishni talab qiladi. “Ijodkor” oʻyin-topshiriqdan “Olmosh” mavzusini oʻtishda samarali foydalanish mumkin.¹ Bu grammatik oʻyinda sinf ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhga ot soʻz turkumi ishtirok etgan gaplarga misol aytish, ikkinchi guruhga esa shu gaplardagi ot(lar)ni olmosh bilan almashtirib gap tuzish topshiriladi. Masalan:

Birinchi guruh vakili yozadi: Ertaga olimpiada boshlanadi.

Ikkinchi guruh davom ettirib: Unda biz faol ishtrok etamiz. Shu yoʻsinda davom ettiriladi. Bu oʻyinni oʻquvchilar oʻrtasida yoki parallel sinflar oʻrtasida “soʻz mushoirasi” qilib davom ettirsa ham boʻladi.

Ona tili taʼlimi jarayonida topshiriqlar tizimi vositasida til hodisalari kuzatiladi, solishtirib qiyoslanadi, oʻxshash va farqli tomonlari aniqlanadi, umumiy va xususiy tomonlariga qarab guruhlanadi, umumlashma qoidalar hosil qilinadi. Natijada qayta xotirlash topshiriqlaridan ijodiy topshiriqlarga qarab dinamik oʻsish yuzaga kela boradi. Bunday topshiriqlar oʻquvchi tafakkuri taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi.

Oʻquv topshiriqlarining soddadan murakkabga tomon oʻsish dinamikasini aniqlash, belgilash murakkab jarayon. Topshiriqlar

¹ TAT jurnalining 1996-2002 yildagi ayrim sonlarida eʼlon qilingan ayrim oʻyin-topshiriqlardan ijodiy foydalanildi

shunday yo`sinda joylashtirilishi zarurki, o`quvchi tafakkuri taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilsin. Ijodiy topshiriqlar, ya'ni o`quvchi tafakkurini o`stiruvchi topshiriqlar o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lishi zarur:

- o`quvchini izlashga, fikr qilishga, noma'lumni topishga undasin;

- o`quvchini mustaqil xulosa chiqarishga yo`naltirishi zarur;

- masalaning murakkablasha borishi o`quvchi aqli, farosatini o`stira borishi kerak;

- bu jarayonning kechishi o`quvchilarda jamoa bo`lib ishlash ko`nikmalarini hosil qila borishi lozim;

- topshiriqlarni bajarish jarayoni o`quvchida o`ziga ishonch, o`zini (bilimini) anglash, imkoniyatlarini aniqlay olish, yangi bilim olishga undashi shart.

Yangilangan ta'lim mazmuni asosida yaratilgan darsliklarda tilshunoslikning hamma bo`limlariga mo`ljallangan mashg'ulotlarda darslar ta'rif, qoida bilan boshlanmasdan, ya'ni o`quvchilarga bilimlar tayyor hoida berilmasdan har bir mavzu uchun mo`ljallangan topshiriqlar tahlili bilan boshlanadi. Mana shu o`rinda o`qituvchi mahorati, qobiliyati, uquvi namoyon bo`ladi. Ana shu jarayonda bir faoliyat usulidan bosqichma-bosqich ikkinchi faoliyat usuliga o`tishi, ya'ni kuzatishdan umumiy xususiyatlari asosida guruhlashga, takrorlashdan o`xshash va farqli tomonlarini aniqlash asosida umumlashmalar shakllanadi. Shundagina berilgan topshiriqlar til hodisalarining mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

5- sinfda fonetika bo`limi o`tilayotganda quyidagi grammatik topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. i-u, a-o, o`-u, i-e, b-p, d-t, z-s, j-ch juftliklari bilan farqlanuvchi so`zlar hosil qiling.

2-topshiriq. x-h tovushlari bilan farqlanuvchi so`z juftlari hosil qiling. H fonemasining talaffuziga e'tibor bering.

3-topshiriq. ng harfiy birikmasiga so`zlar toping va ularni bo`g`inlarga ajrating.

4-topshiriq. “yaxshi” va “yomon” so`zlarining o`xshash va farqli tomonlarini toping.

O`xshash tomonlari: 5ta harf, 2ta unli, 3ta undosh, 2ta bo`g`in, urg`u oxiriga tushadi, 5ta tovush. Farqli tomoni deysizmi? Ma'nosichiligi? Uning antonimligichi?

5-topshiriq. “x” tovushli so`zlar zanjirini tuzing.

Baxt -taxt- tuxum - mirrix –xayol – laxtak – kimxob – baxmal – laxta – axta – axir – ruxsat – taxta - axloq - qix – xafa – axir – ruxsat – taxt – taxlit – taxmin – narx – xabar – ruxsatnoma – axtar - ruxsor.

Buni leksikologiyaga oid topshiriqlar bilan davom ettirish mumkin.

6-topshiriq. Tarkibida antonim so`zlar ishtirok etgan maqollardan toping va davom ettiring.

Birlashgan o`zar, birlashmagan to`zar.

Gapni kam so`zla, ishni ko`p ko`zla.

Yomg`irdan qutildim, qorga tutildim.

Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.

O`t bergan o`tini oladi, suv bergan – suvini kabi.

7-topshiriq.

1. Shunday so`zlar yozingki, har ikki tomonidan o`qiganda ham ma`nosi o`zgarmasin.

Ana, non, lol, ko`k, dod, alla, arra, ikki, katak, kichik, kuchuk, kiyik, nodon, qovoq, qochoq, qipiq, qiziq, qiliq, qiyiq, bob, lil, qoq kabi.

2. Shunday so`zlar yozingki, har ikki tomonidan o`qiganda turli ma`no anglatsin.

Mis-sim, mosh-shom, lof-fol, mol-lom, kit-tik, nok-kon, kalit-tilak, bobur-rubob, tom-mot, ko`p-po`k, qish-shiq, qop-poq, qis-siq kabi.

8-topshiriq. So`zdan so`z yasang.

Navoiy

Nav, navo, nay, on, in, ona, oyi, ov, voy, ayvon, anvoyi.

9-topshiriq.

1. Berilgan so`zlarga tovushdan so`zlar toping

ot – it, yut, o`t, et, osh, ol, oq, ov, oz, on, or, os, ox, och, og`, oh.

ana –

bir –

bosh –

bol –

2. u-o` ishtirokida tovushdosh so`zlar toping.

uz- o`z, uy-o`y, un-o`n. ur-o`r, uq-o`q, uch-o`ch, ul-o`l,

bur-bo`l, sur-so`r, gur-go`l, dur-do`l ...

bul-bo`l, kul-ko`l, qul-qo`l...

tul-to`l, gul-go`l...

3. Hamma unlilarni juftlashtirib ularga tovushdosh so`zlar topish topshirilishi mumkin.

a-o: bor-bar, bal-bol, tam-tom...

i-e: pish-pesh, tish-tesh, tir-ter...

O`quvchilar nutqini sinonim so`zlar bilan boyitishda ham o`zbek tili tovush tizimining qulayliklaridan foydalanish mumkin. Masalan,

10-topshiriq. So`z juftlarini o`qing. Ayirish belgisini ishlatish sabablarini tushuntiring, ayirish belgisiz yozilgan so`zlarning ma`nolarini toping.

Alam-a`lam, davo-da`vo, sava-sa`va, qala-qa`la, surat-sur`at.

Alam arabcha – omonim soʻzlar sirasiga kirib a)ogʻriq, dard; gʻazab, nafrat; zahr maʼnolarini, b)bayroq, tugʻ maʼnolarini anglatadi.

Bulardan bayroq, tugʻ maʼnolari arxaiklashgan kitobiy uslubga xos.

Aʼlam ham arabcha soʻz boʻlib, eskirgan, kitobiy eng bilagʻon, eng dono maʼnolarini anglatadi. Bu soʻz koʻproq shariat qonunlari bilimdoni maʼnosida ishlatiladi.

Davo ar. – dori-darmon; tadbir, chora maʼnolarini anglatadi.

Daʼvo ar. – arz, shikoyat, iddao maʼnolarini anglatadi.

Sava – bu soʻz ikki maʼnoda, yaʼni mesh, sanoch maʼnosida predmetni anglatsa, savalamoq feʼlining buyruq maʼnosi sava – shaklida ham qoʻllaniladi. Faol leksikada koʻproq bu soʻzning feʼl turkumi maʼnosi tushuniladi. Oʻquvchilarga predmet maʼnosini ham tushuntirish kerak.

Saʼva ar. – sayroqi qush.

Surat ar. – koʻrinish, timsol, tasvir, fotorasm, nusxa.

Surʼat ar. – tezlik, shoshilinch, jadallik. Ish-harakatning darajasi.

Qala – shevalarda shahar maʼnosini anglatadi (qozoqcha-shahar). Ammo faol leksikada bu soʻz buyruq feʼli yoki “qalamoq” harakatini bildiruvchi feʼlning asosi maʼnosida qoʻllanadi. Oʻquvchilarga “qala”ning omonimlar ekanligini tushuntirish, ularning leksikasini bir soʻzga boyitish demakdir.

Qalʼa ar. – devor bilan oʻralgan qoʻrgʻon, shahar maʼnolarini anglatadi.

11-topshiriq. A va o unlilari bilan farqlanuvchi soʻz juftlarini oʻqing. Bu unlilarning talaffuziga eʼtibor bering. Soʻzlar qatorini davom ettiring, ularning maʼnodoshlarini toping.

Ona-ana, soda-sada, qotil-qatl, ota-ata, Sora-sara, olam-alam, bol-bal...

Tovushdosh soʻzlarning maʼnodosh (sinonim)larini topish bilan bu soʻzlarning boshqa-boshqa maʼno taraqqiyotiga egaligi aniqlanadi. Yana shunday topshiriq berish ham mumkin.

12-topshiriq. Berilgan soʻz juft (tovushdosh)larining maʼnodoshlarini toping.

Bob-bop, sirt- surt, bur-bor, boʻl-bol, til-dil.

Bob – boʻlim, qism; bop – mos, yarashiqli, soz; sirt – tashqi, tash, tish; surt – art, boʻya; bur – aylantir; bor – mavjud; boʻl – hozirlan, tayyorlan; bol – asal; til – zabon; dil – yurak, qalb, koʻngil kabi maʼnodoshlari topiladi. Bunday ijodiy amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida oʻquvchilarning lugʻat boyligi oshadi, soʻzlarning imlosini yaxshi oʻzlashtirib olishadi.

Maʼlumki, ona tili fanida mavhum tushunchalar, taʼrif va qoidalar juda koʻp. Oʻquvchi har bir til hodisasini mustaqil oʻrganmasa, bu hodisalar ustida mustaqil ijodiy ish bajarmasa, fikrlash, kuzatish, qiyoslash, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish

kabi aqliy faoliyat bilan shug'ullanmasa, til hodisalarining mohiyatini anglay olmaydi va ularni puxta o`zlashtira olmaydi.

Bu aytganlarni bajarish, asosan, amaliy-ijodiy faoliyat bilan bog'liq. Ayni paytda o`quvchi charchamasligi, zerikmasligi, qiziqish bilan faoliyatga kirishishi kerak. Bu jarayonga o`yin(grammatik o`yin) yo`li bilan kirishish o`quvchilar tabiatiga juda mos keladi. Chunki o`yin o`quvchining eng sevimli mashg'uloti, faoliyatida asosiy o`rinni egallaydi. Ana shu imkoniyatni foydali tomonga, maqsad sari yo`naltirish zarur.

1.2. Soʻz yasaliş strukturasi

Soʻzning yasaliş strukturasi (tarkibi) soʻzning morfem strukturasi dan ham, soʻzning morfologik strukturasi dan ham farq qiladi.

Soʻzni morfem strukturasi ga koʻra tahlil qilinganda, uning (soʻzning) umuman tarkibi –morfemalari –maʼnoli qismlari aniqlanadi. Masalan: *ter-im-chi-lar*, *oʻqi-t-uv-chi-lik-ni*, *paxta-zor-lar-ning* kabi.

Soʻzning morfologik strukturasi tahlil qilinganda esa, uning (soʻzning) shakl yasash asosi va shakl yasovchi vosita ajratiladi. Bu vositalar esa soʻz tarkibida ikkitadan oshmaydi: shakl yasovchi asos, shakl yasovchi affiks. Masalan: paxtakorlarning soʻzining shakl yasovchi asosi paxtakorlar, shakl yasovchi affiksi –ning, paxtakorlar soʻzining shakl yasovchi asosi –paxtakor, shakl yasovchi affiksi –lar, paxtakor –soʻz.

Soʻz yasash tarkibida esa soʻz yasovchi asos va soʻz yasovchi affiks ajratiladi. Yaʼni soʻzda yasovchi qismlar ham ikkitadan oshmaydi (garchi soʻz tarkibida birdan ortiq oʻzak va soʻz yasaydigan birdan ortiq affiks boʻlsa-da). Masalan, bilimdonlik soʻzining soʻz yasovchi asosi bilimdon, soʻz yasovchi affiksi –lik, bilimdon soʻzining soʻz yasovchi asosi bilim, soʻz yasovchi affiksi –don, bilim soʻzining soʻz yasovchi asosi –bil, soʻz yasovchi affiksi –im.

Yasama soʻzining asosi (soʻz yasaliş asosi) qoʻshma soʻz yoki soʻz birikmasiga teng boʻlishi mumkin. Bunday holatda ham

yasovchi qismlar ikkitadan oshmaydi. Masalan, *belbog‘li* so‘zining yasovchi asosi *–belbog‘*, yasovchi affiks *–li*; *besh qavatli (bino)* yasovchi asos *–besh qavat*, yasovchi affiks-*li*; *ikki xonali (uy)* *–ikki xona* *–yasovchi asos*, *–li* yasovchi affiks. Ammo yasovchi affiks qatnashmagan qo‘shma so‘zlarda yasovchi komponentlar (qismlar)ning hammasi **yasovchi asos** deb yuritiladi. Masalan, *toshko‘mir tosh* *–yasovchi asos*, *ko‘mir* *–yasovchi asos* *–toshko‘mir* *–yasalma*; *oqqush* *–oq* *–yasovchi asos*, *qush*-yasovchi asos-*oqqush* *–yasalma* kabi.

So‘zning yasalish tarkibini aniqlashda faqat yasama so‘zlar (sodda yasama va qo‘shma so‘zlar) tahlil qilinadi. Ya’ni sodda tub so‘zlar e’tibordan chetda qoladi. Bunday so‘zlar so‘zning morfem va morfologik strukturasi ko‘ra tahlil etiladi. Boshqacha aytganda, so‘zning yasama qismigina tahlil etiladi. Masalan, *o‘quvchilarning* so‘zining *o‘quvchi* qismi, *olmazorlar* so‘zining *olmazor* qismi, *tinchlikni* so‘zining *tinchlik* qismi va boshqalar.

So‘z tarkibida morfemalarni to‘g‘ri ajratish yasash asosining va yasovchi vositaning tarkibini, chegarasini to‘g‘ri hisobga olish katta ahamiyatga ega. Masalan, *gulchilik*, *temirchilik*, *baliqchilik* kabi yasama leksemalarda *gulchi*, *temirchi*, *baliqchi* yasash asosi hisoblanadi. Ammo *ko‘pchilik*, *ozchilik*, *dehqonchilik*, *yog‘ingarchilik* kabilarda esa yasash asosi *ko‘p*, *oz*, *dehqon*, *yog‘in* leksemalaridir. Chunki o‘zbek tilida *ko‘pchi*, *ozchi*, *dehqonchi*, *yog‘ingar* shaklidagi leksemalar yo‘q. Demak, bu o‘rinda shu so‘zlar tarkibidagi *–chilik*, *–garchilik* qismlari yasovchi affikslar hisoblanadi.

Tahlil namunasi:

1. Morfem struktura tahlili (Soʻzning eng kichik maʼnoli qismlari va ularning turlari aniqlanadi).

1) *terimchilarni:*

ter=oʻzak, -im=s.yas.aff., -chi=soʻz yas.aff., -lar=kat.shak. yas.aff., -ni=kat.shak.yas.aff;

2) *baliqchilikdan:*

baliq=oʻzak, -chi =soʻz yas.aff., -lik=kat.shak. yas.aff., - dan=kat.shak.yas.aff;

3) *toʻqimachilikni:*

toʻqi=oʻzak -ma=soʻz yas.aff., -chi=soʻz yas. aff., -lik=soʻz yas.aff., -ni =kat.shak.yas.aff;

4) *dehqonchilikda:*

dehqon=oʻzak, -chilik =soʻz. Yas. Aff., -da =kat. Shakl yas. Aff;

5) *koʻpchilikning:*

Koʻp =oʻzak, -chilik =soʻz yas.aff., -ning=kat.shakl.yas.aff;

6) *Mirzachoʻllik:*

Mirza =oʻzak, choʻl =oʻzak, -lik soʻz yas.aff;

7) *Kattaqoʻrgʻondan:*

Katta =oʻzak, qoʻrgʻon =oʻzak, dan=kat.shakl.yas.aff;

8) *ishlagan:*

ish=oʻzak; -la=soʻz yas.aff., -gan= nok.shakl yas.aff.

2. Soʻz yasalish strukturasi tahlili: (yasalmani hosil qiluvchi qismlar ajratiladi).

1) *temir*:

Temir so 'z;

2) *temirchi*:

temir=yasovchi asos, -chi =yasovchi affiks

(*temirchi=yasalma*);

3) *temirchilik*:

temirchi=yasovchi asos, -lik =yasovchi affiks

(*temirchilik=yasalma*);

4) *kimyogar*:

kimyo=yasovchi asos, -gar =yasovchi affiks (kimyogar-

yasalma);

5) *kimyogarchilik*:

kimyogar=yasovchi asos, -chilik =yasovchi affiks

(*kimyogarchilik=yasalma*);

6) *o 'rtoqchilik*:

o 'rtoq=yasovchi asos, -chilik=yasovchi affiks,

(*o 'rtoqchilik=yasalma*);

7) *Yangiyo 'l*:

yangi=yasovchi asos, yo 'l=yasovchi asos,

(*Yangiyo 'l=yasalma*);

8) *noo 'rin*:

no=yasovchi affiks, o 'rin=yasovchi asos, (noo 'rin=yasalma);

9) *serhosil*:

ser=yasovchi affiks, hosil=yasovchi asos, (serhosil=yasalma);

10) *serma 'noli*:

serma'no=yasovchi asos, -li =yasovchi affiks,
(srma'noli=yasalma);

3. Morfologik struktura tahlili: (so‘z shakl hosil qiluvchi qismlar ajratiladi).

1) *ishlar:*

ish=shakl yasovchi asos, -lar=shakl yasovchi affiks,
(ishlar=so‘z shakl);

2) *ishchilar:*

ishchi=shakl yasovchi asos, -lar=shakl yasovchi affiks,
(ishchilar=so‘z shakl);

3) *ishchilarni:*

ishchilar=shakl yasovchi asos, -ni=shakl yasovchi affiks,
(ishchilarni=so‘z shakl);

4) *ishchilarimizning:*

ishchilarimiz=shakl yasovchi asos, -ning=shakl yasovchi affiks,
(ishchilarimizning=so‘z shakl).

Eslatma. Agar leksemaning tarkibida yasovchi qism qatnashmasa, u “so‘z” termini bilan nomlanadi.

2-bob. FE'LLARNING YASALISHI

Hozirgi o‘zbek tilida fe’llar affiksatsiya usuli bilan (*tish-la, toza-la, xayr-lash, ko‘p-ay, gumon-sira, ikki-lan, yo‘l-iq, yilt-ira* kabi) va kompozitsiya usuli bilan (*hikoya, qil, g‘ayrat qil, ijod et, olib kel, tashlab ket, ochib tashla, sotib ol, sanab ol* kabi) yasaladi.

2.1. Affiksatsiya usuli bilan fe’l yasalishi

Affiksatsiya usuli bilan fe’l yasashda ko‘pincha ot, sifat, son, ravish, taqlidiy so‘zlar, shuningdek, olmosh va undovlar yasash asosi vazifasida keladi. Bu so‘zlarga qo‘shilgan fe’l yasovchi affikslarning so‘z yasash darajasi ham bir xil emas; ularning ayrimlari mahsuldor affiks bo‘lib, juda ko‘p miqdorda fe’l yasashga xizmat qilsa, ba’zilar chegaralangan miqdorda fe’l yasaydi.

Hozirgi o‘zbek tilida fe’l yasashda quyidagi affikslar qo‘llanadi:

-la. Bu affiks eng faol fe’l yasovchi morfemalardan bo‘lib, barcha so‘z turkumlaridan fe’l yasay oladi: *ish-lamoq, musht-lamoq, osh-lamoq (otdan), oq-lamoq, yangi-lamoq, yaxshi-lamoq, qora-lamoq (sifatdan), hozir-lamoq, tez-lamoq, sekin-lamoq (ravishdan), hayhay-lamoq, dod-lamoq (undovdan), qiqir-lamoq, shitir-lamoq, taqir-lamoq (taqlidiy so‘zdan)* kabi.

- **la** affiksining ma’nosi yasash asosidan anglashilgan ma’no bilan bog‘liq ravishda turlicha bo‘ladi. Bu affiks bilan yasalgan fe’llar quyidagi ma’nolarni bildiradi:

1. Ot turkumiga kirgan so‘zlar yasash asosi vazifasida kelganda, bunday fe’llar:

a) ish-harakatni asosda ifodalangan narsa orqali bajarish, shu narsa bilan shug‘ullanish kabi ma’nolarni bildiradi: *tish-lamoq, osh-lamoq, tuz-lamoq, qo‘l-lamoq, parma-lamoq, arra-lamoq, randa-lamoq* kabi;

b) yasash asosi ifodalangan narsani hosil qilish, yuzaga keltirish ma’nolarini bildiradi: *gul-lamoq, qat-lamoq, urug‘-lamoq, dasta-lamoq*;

v) yasash asosi anglatgan narsa holatiga o‘tish, o‘sha narsaga o‘xshatish ma’nolarini bildiradi: *bug‘-lamoq, muz-lamoq, suv-lamoq*;

g) ish-harakatning yasash asosi anglatgan o‘rin va paytga munosabatini bildiradi: *ora-lamoq, joy-lamoq, o‘rin-lamoq, qishla-moq, o‘rma-lamoq*;

2. Belgi bildiruvchi so‘zlar (sifat, ravish) yasash asosi vazifasida kelganda, shunday asos ifodalagan belgi holatiga o‘tkazish, shu holatga ega qilish ma’nolarini bildiradi: *yangi-lamoq, to‘g‘ri-lamoq, tekis-lamoq, past-lamoq, sekin-lamoq* kabi.

3. Undov a taqlidiy so‘zlar yasash asosi vazifasida kelganda, shunday asos ifodalagan his-hayajon va tovushni yuzaga keltirishni bildiradi: *ho‘p-lamoq, taraq-lamoq, dod-lamoq* kabi.

O‘zbek tilida **-la** affiksi orqali hosil bo‘lgan bir qator yasalmalarda so‘z tarkibining, morfemalar orasidagi chegaraning o‘zgarishi natijasi *-i, -sh* singari ayrim shakl yasovchilarning **-la** affiksi tarkibiga singib ketishi hodisasi ham uchraydi. Buning natijasida *-lan, -lash* kabi murakkab affikslar (*-la—n, -la--sh*) yuzaga keladi: *taajjub-lanmoq, ajab-lanmoq, g‘azab-lanmoq* kabi.

Bu yasalmalarda alohida *-la* hamda mustaqil *-n*, *-sh* affikslari ajratilmaydi, chunki tilda bu fe'llar *-n*, *-sh* affiksisiz *taajjublamoq*, *ajablamoq*, *g'azablamoq* tarzida ishlatilmaydi. Shunga ko'ra *-lan*, *-lash* kabilar fe'l yasovchi alohida murakkab affikslar qatoriga kiradi.

-i, **-sh** affikslari aslida o'zlik va birgalik daraja shakllarini yasashga xizmat qilgani uchun *-lan*, *-lash* affiksli yasama fe'llarda ham o'zlik va birgalik darajaga xos xususiyat –bajaruvchi shaxsning o'zidagi holat, xususiyat-belgining o'zgarishi, yuz berishi yoki unda shaxslarning birgaligi ma'nolari ifodalanadi: *shod-lanmoq*, *ikki-lanmoq*, *xavotir-lanmoq*, *do'st-lashmoq*, *xayr-lashmoq* kabi.

Baynalminal asosdan yasalgan gazlashtirmoq, rejalashtirmoq, ekranlashtirmoq tipidagi fe'llar tarkibidagi *-lashtir* ham murakkab affiks bo'lib, mustaqil qismlarga ajralmaydi.

-(a)r. Bu affiks sifatlardan fe'l yasashga xizmat qiladi, shu belgiga ega bo'lish, shu belgi holatiga o'tish ma'nolarini bildiradi: *ko'k-armoq*, *oq-armoq*, *bo'z-armoq*, *o'zga-rmoq* kabi.

-(a)y. Bu affiks sifat va ravishlardan ba'zan otlardan yasaydi, yasash asosi anglatgan belgi holatiga o'tish, shu belgiga ega bo'lish ma'nolarini bildiradi: *keng-aymoq*, *tor-aymoq*, *sar(i)g'-aymoq*, *oz-aymoq*, *ko'p-aymoq*, *shalp-aymoq* kabi fe'llar ham asli shu affiks orqali taqlidiy so'zlardan yasalgan. Masalan: *Issiq jon deydilar*, *jon bo'lsa bo'lar*, *Payt kelsa chechak ham sarg'ayar so'lar*. (A.Oripov).

-a. Bu kamunum affiks ot va sifatlardan fe'l yasaydi, asosdan anglashilgan narsa, belgi holatiga o'tish, harakatni shu narsaga o'tkazish, harakatning belgiga munosabati kabi ma'nolarni

anglatadi: *san-amoq, o'y(i)n-amoq, osh-amoq, yash-amoq, tun-amoq, qon-amoq, qiy(i)n-amoq* kabi. Misollardan ko'rinadiki, bu affiks yordamida fe'l yasashda asos ma'lum fonetik o'zgarishga uchraydi. *Yiltir-a, shildir-a* kabilar ham shu affiks bilan yasalgan.

-sira. Bu affiks ot va olmoshlardan fe'l yasaydi, asosdan anglashilgan narsani istash ma'nosini bildiradi: *suv-siramoq, uyqu-siramoq, xavf-siramoq, qon-siramoq, gumon-siramoq, hadik-siramoq, sen-siramoq, siz-siramoq* kabi.

-k (-ik), -q (-iq). Turli so'zlarga qo'shilib, yasash asosidan anglashilgan narsa ta'siriga o'tish, belgi-xususiyat, holatiga o'tish ma'nolarini bildiradi: *ko'z-ikmoq, kech-ikmoq, bir-ikmoq, chin-ikmoq, zo'r-ikmoq* kabi.

-ira. Kamunum affiks bo'lib, asosan, taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi, taqlidiy so'z ifodalagan holatga o'tish ma'nosini bildiradi: *yilt-iramoq, milt-iramoq, yalt-iramoq, qalt-iramoq* kabi.

-i. Kamunum affiks bo'lib, ot va sifatlardan fe'l yasaydi: *chang-imoq, boy-imoq, tinch-imoq* kabi.

Yuqoridagilardan tashqari, hozirgi o'zbek tilida *hayqirmoq kamsitmoq, qiziqsinmoq* kabi yasalgan fe'llar ham mavjud.

2.2. Kompozitsiya usuli bilan fe'l yasalihi

Kompozitsiya usuli bilan qo'shma fe'llar yasaladi. Odatda, qo'shma fe'llar ikki va undan ortiq asosning birikuvidan hosil bo'ladi, ulardan yaxlit bir ma'no anglashiladi. Ikki va undan ortiq so'z (asos) birikib, qo'shma fe'l hosil qilganda, ular orasida sintaktik aloqa bo'lmaydi: *G'anijon beixtiyor orqasiga qaradi-yu, yana yo'lida **davom edi.** (A.Qahhor). Go'ro'g'libek boshidan o'tgan voqealarni bir-bir **bayon etdi.** ("Go'ro'g'li").*

Qo'shma fe'lning shaxs-son va zamon bilan tuslanishini ko'rsatuvchi shakl yasovchi affikslar har vaqt ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *Yosh oybeklar bayrog'in, ko'taraylik balandga. Do'stim, jonni **baxsh etaylik,** faqat ona-Vatanga (A.Oripov). u yoq –bu yoqqa diqqat bilan **ko'z tashladi-da,** zinadan ohista yuqoriga ko'tarildi. (K.Yashin). yo'lchi atrofiga **ko'z yugurtirib,** qigza tomon ikki –uch **qadam bosdi.** (Oybek).*

Qismlarning qaysi so'z turkumidan bo'lishiga qarab qo'shma fe'llar ikki ikki turga bo'linadi:

1. "Ot+fe'l" tuzilishi (fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'ldan tarkib topgan) qo'shma fe'llar: *ta'zim qilmoq, g'ayrat qilmoq, fikr qilmoq, xursand bo'lmoq* kabi;

2. "Fe'l+fe'l" tuzilishli (ikki fe'ldan tarkib topgan) qo'shma fe'llar: *sotib olmoq, olib qochmoq, chiqib ketmoq* kabi.

"Ot-fe'l" tuzilishli qo'shma fe'llar. Bunday qo'shma fe'l tarkibidagi qismlar aslida obyekt bilan harakat munosabatini ko'rsatsa ham, qo'shma fe'l tarkibida ular orasidagi sintaktik aloqa

kuchsizlanib, har ikki qism yaxlit holda bir umumiy leksik ma'noni anglata boshlaydi, ya'ni semantik va grammatik jihatdan o'zaro uzviy bog'lanib ketib, bir butun leksik birlikni tashkil qiladi. Bu tip qo'shma fe'llarning birinchi qismi vazifasida ot, sifat, son kabi turkum so'zlari keladi, ikkinchi qism vazifasida solmoq, qilmoq fe'llari qo'llaniladi. Bu xildagi qo'shma fe'llarda solmoq, qilmoq fe'llari birinchi qismida ifodalangan narsa, belgi, xususiyatga, daraja va miqdorga ega qilish, o'shanga xos qilish, shu holatga keltirish kabi ma'nolarni anglatadi: *asos solmoq, gapga solmoq, dahshat solmoq, esga solmoq, vafo qilmoq, e'lon qilmoq, katta qilmoq* kabi. *Biz, o'qituvchilar, to'qqiz yil davomida seni ko'zimizning nuri, qalbimizning harorati bilan **parvarish qildik.*** (A.Qahhor). *normat qo'shiqqa **quloq solib,** ichkaridagi odamning chiqishni kuta boshladi.* (S.Ahmad). *Qizning qiyg'och qoshi, jarangli kulgilari kimlarningdir yuragiga **larzalar solgan.*** ("Saodat").

Qilmoq ko'makchi fe'lining sinonimi, sifatida etmoq, aylamoq fe'llari qo'llanadi: *qabul qilmoq –qabul etmoq, -qabul aylamoq, obod qilmoq –obod etmoq –obod aylamoq* kabi. Hozirgi o'zbek tilida *aylamoq* fe'li nisbatan kamroq ishlatiladi: *Ziyofat, keldi-ketdi allamallagacha **davom etdi.*** (Oybek). *O'zingni bos, hovliqma, **sabr et.*** (Uyg'un). *Kimga ko'p **yaxshilik aylay,** o'zing ayt.* (A.Oripov). *Kimdir tama bilan dunyo kezadi, Kimdir xalq dilini **etadi obod.*** (A.Oripov).

Ba'zan *ko'rsatmoq* fe'li *qilmoq*, *etmoq* fe'llariga vazifadosh bo'lib kelishi mumkin: *Gulorning g'oyib bo'lishi Yo'lchiga yashin urgan kabi ta'sir ko'rsatdi.* (Oybek).

“Ot-fe'l” tuzilishli qo'shma fe'llarda ikkinchi qism bo'lmoq fe'li bilan ham ifodalanadi. Bu hodisa qo'shma fe'llarning birinchi qismi, ot, sifat, son kabi so'zlardan iborat bo'ladi: *tamom bo'lmoq, tajang bo'lmoq, xafa bo'lmoq, sarson bo'lmoq, ovora bo'lmoq* kabilar. Masalan: *Yaxshilar doim nasihatlar o'z ahbobiga Ichmagil, xushyor bo'l, tushma balo girdobiga* (E.Vohidov).

Bo'lmoq fe'lining qo'shma fe'l tarkibida ikkinchi qism sifatida kelishini bu fe'lning ot kesim tarkibida bog'lama vazifasida kelishidan (*talaba bo'ldi, o'qituvchi bo'ldi, muhandis bo'ladi* kabi) farqlash kerak. *Bo'lmoq* fe'li bog'lama vazifasida kelganda qo'shma fe'l yasalmaydi, balki sodda so'z bog'lama bilan ishlatilgan bo'ladi, xolos. Bu vaqtda *bo'lmoq* fe'lini boshqa bog'lama bilan almashtirsa bo'ladi: *Samimiy aytilgan so'z sodda bo'ladi. Chunki dilning hukmronligi tildan ustun bo'ladi. Yaxshi odamning boqishlari ham doim go'zal bo'ladi* (M.Ibrohimov). Misollardagi *bo'lmoq* fe'lini – **dir** bog'lamasiga (soddadir, ustundir, go'zaldir shaklida) almashtirish mumkin.

Bo'lmoq fe'li qo'shma fe'lning qismi vazifasida kelsa, uni bog'lama bilan almashtirib bo'lmaydi: *Hayron bo'lmoq, xursand bo'lmoq, kir bo'lmoq. Oz bo'lsin, oz bo'lsa ham soz bo'lsin* (Maqol). *Jonim bilan Rustamjon aka, bundan ko'nglingiz to'q bo'lsin* (K.Yashin). Misollardagi *bo'lmoq* qismini –**dir** bog'lamasi bilan almashtirib bo'lmaydi.

Ot va otlashgan soʻzlar bilan *qoʻymoq, chiqarmoq, olmoq, bogʻlamoq, koʻrmoq, kechirmoq, tashlamoq* kabi feʼllarning birikishidan asli frazeologik birliklar hosil boʻladi; bunday birliklarni ot+feʼl tuzilishli qoʻshma feʼllar qatoriga kiritish toʻgʻri boʻlmaydi: *koʻngil qoʻymoq, nom chiqarmoq, dam olmoq, umid bogʻlamoq, yoʻl tutmoq, qoʻlga olmoq*. Bu xil birliklarning maʼnosi uning tarkibidagi qismlarning toʻgʻri maʼnosidan kelib chiqmaydi, balki har ikki qism yaxlitligicha koʻchma maʼno anglatadi. Masalan: *Dehqonlarni ipsiz bogʻlamoqchilar deng! Ularni yerga bogʻlab qul qilmoqchilar deng! (N.Safarov).*

“**Feʼl+feʼl**” tuzilishli qoʻshma feʼllar. Qoʻshma feʼlning bu turi ikki feʼlning birikuvidan hosil boʻladi. Birinchi qism odatda feʼlning *-a, -y* hamda *-(i)b* qoʻshimchali ravishdosh shaklida boʻladi. Qoʻshma feʼl tarkibidagi qismlar oʻzaro birikib, ularning maʼnosidan farq qilgan yangi maʼno anglatadi: *olib bormoq, olib kelmoq, sotib olmoq, tashlab ketmoq*. Masalan: *Paxtafurush boylar kuzda kambagʻallarning paxtasini arzon-garovga sotib olib, saroyiga bosib qoʻyar edi (M.Ismoiliiy). Avaz suruvdan qolib ketgan ikkita qoʻzichoqni olib keldi (P.Qodirov). Gʻavvos Meʼmorni oʻsha shinam xona sari boshlab bordi*. Bunday qoʻshma feʼl yaxlitligicha yangi leksik maʼno anglatishi bilan nutqda mustaqil va yordamchi feʼldan tuzilib, ikkinchi qism tugallanganlik, takror, davom, boshlanish kabi turlicha maʼnolarni ifodalovchi analitik shakllardan farq qiladi: *olib kelmoq* –qoʻshma feʼl, *aytib yubormoq* –analitik shakl kabi. Hozirgi oʻzbek tilida ikki feʼldan tashkil topgan qoʻshma feʼllar u qadar koʻp emas: *chaqirib kelmoq, tortib olmoq, qaytarib*

olmoq kabi. Ammo analitik shakllar nutqda juda ko‘p ishlatiladi: *ayta boshlamoq, aytib qo‘ymoq, ayta qolmoq, aytib yubormoq* kabi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojlanishni boshlagandan beri ilm-fan va milliy madaniyatimizning har bir sohasida jiddiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” deb nomlangan kitobida ta’kidlaganidek, “O‘tmish davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirish, uni tom ma’noda milliy qadriyatiga aylantirish yo‘lida ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlol yillarida O‘zbekiston uning qo‘llanish darajasi amalda nihoyatda kengaygan, uni ilmiy asoslab rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlarida bag‘ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari yangi-yangi lug‘atlar ko‘plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini ham yuqoridagi talablarga qisman bo‘lsada hissa qo‘shadi, degan umidda quyidagi xulosalarga kelindi.

1. O‘zbek tilida so‘z yasaliş usullari mavzusini o‘tish orqali o‘quvchilarning nutqini takomillashtirish, so‘z yasaliş usullarini o‘tish jarayonida so‘z yasaliş strukturasi haqida, ularning turlarini tushuntirish, o‘quvchilarga ma’lumot berish bilan birgalikda mavzudagi mashqlarni o‘tish jarayonida o‘yin topshiriqlardan samarali foydalanildi.

2. O‘quvchilarga uyga vazifa berishda rasmlardan foydalanib so‘z yasaliş usullarilarni qatnashtirib matnlar tuzdirildi. Turli o‘yin

topshiriqlar ishlab chiqildi. Bu o'quvchilarning so'z yasaliş usullari haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi va darsni qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. So'z yasaliş usullarining – nutqdagi o'rni haqida ta'kidlanib o'quvchilarga qiziqarli qilib tushuntirildi.

3. Affiksasiya usuli bilan fe'l yasalişining kompozisiya usuli bilan fe'l yasalişidan farqi ularning vazifadoshligiga e'tibor qaratilgan fe'l yasalişini o'quvchilarga tushuntirishda turli xil o'yin topshiriqlardan foydalanildi. Fe'l yasaliş usullari mavzusini tushuntirishda doskada ko'rgazmali qurollardan plakatlardan hamda "So'zdan gapga" o'yinini tashkil etgan holda o'tish mumkinligi aytili. Bunda zamonaviy ped tehnologiya asosida kadaskop yordamida dars o'tishi ko'rsatib berildi.

4. Mavzuni bunday holda o'tish o'quvchilarning so'z boyligini oshirish hamda nutqning rang-barangligini ta'minlaydi. Bir so'z bilan aytganda o'quvchilarning nutq madaniyati takomillashib boradi.

5. 6-sinf ona-tili darsligida berilgan fe'llar bo'yicha o'tilganlarni mustahkamlash darsida yangi pedagogik tehnologiya asosida turli o'yin topshiriqlar tavsiya qilindi.

6. O'zbek tilshunosligida fe'llar mavzusi bo'yicha salmoqli ilmiy tadqiqotlar qilingan shunga ko'ra bu mavzuni umumiy o'rta ta'lim maktabida ilmiy asoslangan bilimlarga tayangan holda o'tishni rivojlantirish maqsadida qilingan ilmiy nazariy talqinlar fe'l mavzusini o'tishning ilmiy-amaliy asosini tashkil etishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”
Toshkent, 2008 yil.
2. Karimov I.A. “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent “Sharq”. 1997 yil 7-beti.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun // Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori//.
Toshkent “Sharq” 20-29-betlar.
4. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Toshkent “Sharq”
2001 yil.
5. Umumiy o‘rta ta’limning “Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi”. Toshkent “Sharq” 1999 yil 1-maxsus sahifasi.
6. Takomillashtirilgan yangi tahrirdagi umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti. Toshkent 2010 yil.
7. Abdulahatova R, Yusupova T, Do‘sonov Q. “Til ta’limida uzviylik va uzluksizlik”. Toshkent 2008 yil.
8. Abdurahmonov X., Rafoyev A., Shodmonoqulova D. “O‘zbek tilining amaliy grammatikasi”. Toshkent, “O‘qituvchi”
1992 yil.

9. Almamatov T., Yadgarov Q., Pochayeva G. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Jizzax 2006 yil.
10. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent, 2011 yil.
11. Azimov I., Saparniyozova M. “Ona tildan ma’ruzalar va testlar majmuasi”. Toshkent, 2008 yil.
12. Azizov O. “Tilshunoslikka kirish” Toshkent, 1996 yil.
13. Hamrayev M. “O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi”. Toshkent, 2010 yil.
14. Mahmudov M, Nurmonov A. “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi” Toshkent 1995 yil.
15. Mahmudov N va boshqalar. “Ona tili” 6-sinflar uchun darslik. Toshkent “Tasvir” nashriyoti. 2009 yil.
16. Nurmonov A, Ikramov I, Boynazarov F. “Yangi pedagogik texnologiya asoslari”. Toshkent, 2007 yil.
17. Qodirov M va boshqalar. “Ona tili” 8-sinflar uchun darslik. Toshkent, “Cho‘lpon”, 2006 yil.
18. Qurbonova M va boshqalar. “O‘zbek tilining struktural sintaksisi”. Toshkent, 2004 yil.

19. O‘rinboyev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi morfologiyasi. Samarqand. 2011-yil.
20. Sayfullayeva R.va boshqalar Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 2009-yil
21. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent, 2009 yil.
22. Tuzuvchilar B.Mingliyev, O.Xoliyorov, H.Qodirova. “Ona tili” qomus Toshkent yangi asr avlod. 2010 yil.
23. To‘xliyev B, Alimova O, To‘xliyeva D. “O‘zbek tili”. Toshkent. O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2010 yil.
24. To‘xliyev B, Niyozmetova R, Boltayeva I. “darsliklar ustida ishlash”. Toshkent “Fan” nashriyoti 2007 yil.
25. To‘xliyev B, Inog‘omova R, Abdulhatova R. “darsliklar bilan ishlash metodikasi”. Toshkent, 2008 yil.
26. To‘xliyev B, Shamsiyeva M. Ziyotova G. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent 2010 yil.
27. To‘xliyev B, Yusupova Sh, Haqberdiyeva Z. “Yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasi” Toshkent, 2010 yil.
28. Umarova H. “Qiziqarli grammatika” Toshkent, “Halq merosi”, 2002 yil.

29. Xojiyev A. “O‘zbek tili morqologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari”. Toshkent, “Fan”, 2010 yil.

30. Yodgorov Q. “DTS asosida maktab darslialari bilan ishlash” (ma’ruzalar matni) Jizzax 2010 yil.

31. G‘ulomov A, Ne‘matov H. “Ona tili ta’lim mazmuni”. Toshkent “O‘qituvchi” 1995 yil.

32. G‘ulomov O. “Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari”. Toshkent 1992 yil.

33. Shoabdurahmonov va boshqalar. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent 1980 yil.

MUNDARIJA

1. Kirish-----	3
2. 1-bob. O‘zbek tilida so‘z yasalish usullari -----	8
1.1. So‘z yasalishi usullari-----	14
1.2. So‘z yasalish strukturasi-----	29
3. 2-bob. Fe’llarning yasalishi-----	34
2.1. Affiksatsiya usuli bilan fe’l yasalishi-----	34
2.2. Kompozitsiya usuli bilan fe’l yasalishi-----	38
5. Xulosa-----	43
6. Adabiyotlar ro‘yxati-----	45

**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti bitiruvchi kurs talabasi Umida
Umarovaning “Fe’lning yasalish usullari ustida ishlash”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga tashqi**

T A Q R I Z

Uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish tadbirlari - bu ta’lim tizimini demokratik va insonparvarlik yo‘nalishlarida qayta qurish bilan ham bog‘liq. Chunki insonparvarlik g‘oyalari va tamoyillari milliy g‘oya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, insonning moddiy va ma’naviy farovonligini erkin, mustaqil, ijodiy faoliyatini, kishilarning o‘zaro hamkorligi, hamjihatligi, birdamligi va bir-biriga g‘amxo‘rligi kabi eng yuksak, ilg‘or insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etadi. Odillik, halollik, poklik, to‘g‘rilik, vatanparvarlik, vijdonlilik, imon- e’tiqodlilik, mehmondo‘stlik, kamtarlik, or-nomusni, el-yurt manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yish kabi yuksak insoniy fazilatlar ham insonparvarlikning namoyon bo‘lishidir. Bu esa o‘zidan, uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimiga insonparvarlashtirish ehtiyojini kun tartibiga qo‘yadi. Bitiruvchi tanlagan ushbu mavzu mazkur masala bo‘yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalarni va tavsiyalarni ta’lim-tarbiya tizimiga joriy etish, ijtimoiy gumanitar fanlar mazmuniga kiritish yo‘l – yo‘riqlarini o‘zida ifoda etadi.

BMI kirish ikki asosiy bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Mavzuning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muommoning o‘rganganlik darajasi, BMIning maqsad vazifalari, obykti va predmeti hamda uning yangiligi haqida ma’lumot berilgan.

BMIning asosi ikki bobda ochib berilgan bo‘lib, unda so‘z yasaliş usullari va fe’llarning yasalişiga bag‘ishlangan. Bu mavzularni o‘tishda o‘quvchilar mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish va mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi umumdidaktik omillar haqida ma’lumot berib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini o‘stirishda ta’limiy o‘yinlardan unumli foydalangan. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashga so‘z boyligini oshirishga uyushiq bo‘laklarni mustahkamlashga yordam beradi.

Ishning xulosa qismida mavzuning ahamiyati qisqacha bandlar orqali izohlaydi.

Umida Umarovanning “Fe’lning yasaliş usullari ustida ishlash” mavzusidagi BMI ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mavzu yuqori saviyada bajarilgan DTS va BMI talablariga to‘la javob beradi. Shu boisdan men Hilola Yusupovanning ushbu BMI ni DAK a’zolari yuqori saviyada yozilgan ishlar qatorida baholashingizni so‘rayman.

Samarqand viloyati Xalq ta’lim bo‘limiga

qarashli 34-maktabning oliy toifali

ona tili va adabiyot o‘qituvchisi:

T.Norqulova

**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek
tili va adabiyoti fakulteti bitiruvchi kurs talabasi Umida
Umarovanning “Fe’lning yasalish usullari” mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

XULOSASI

Ta’lim jarayonini tubdan yangilash o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirish, bugungi kun talablaridan biri bo‘lib Umida Umarovanning “Fe’lning yasalish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bu borada e’tiborga loyiqdir.

Mazkur ish kirish, ikki bob va xulosa qismidan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muommoning o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, ob’ekti va predmeti hamda uning yangiligi haqida ma’lumot bergan.

BMIning asosi ikki bobda ochib berilgan bo‘lib, unda so‘z yasalish usullari va fe’llarning yasalishiga bag‘ishlangan. Bu mavzularni o‘tishda o‘quvchilar mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish va mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi umumdidaktik omillar haqida ma’lumot berib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini o‘stirishda ta’limiy o‘yinlardan unumli foydalangan. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashga so‘z boyligini oshirishga uyushiq bo‘laklarni mustahkamlashga yordam beradi.

Ishning xulosa qismida mavzuning ahamiyati qisqacha bandlar orqali izohlaydi.

Umuman olganda bitiruv malakaviy ishini bakalavriat yo‘nalishi talabalari darajasida tayyorlangan deb hisoblayman va uni DAK oldida himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

p.f.n.Q.M.Yadgarov

**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti bitiruvchi kurs talabasi Umida
Umarovaning “Fe’lning yasalish usullari ustida ishlash”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Ta’lim mazmunini yangilanishi, uning dastur va darsliklarida o‘z ifodasini topishi ona tilidan har bir bo‘lim, har bir bobda mavzuni o‘tishning o‘ziga xos tomonlarini izlashni, o‘ziga xos metod va usullar qo‘llanishni taqozo qilmoqda.

Ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish, ular ongida ma’noviy-ma’rifiy inqilob qilishga erishish zarur. Shuning uchun ham, grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechib, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg‘ulotlarni o‘quvchilarning nutqiy malakasini, ijodiy fikrlash ko‘nikmasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi. Bu maqsadni amalga oshirishda Umida Umarova tomonidan tayyorlangan fe’lning yasalish usullari ustida ishlash mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi dolzarbdir.

Umida Umarovaning “Fe’lning yasalish usullari ustida ishlash” mavzusidagi bitiruv ishi kirish ikki asosiy bob va xulosa qismidan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi maqsad vazifalari hamda ishning amaliy ahamiyati, ona tili materiallarining berilishi haqida ma’lumot bergan.

Ishning asosi ikki bobda ochib berilib o‘quvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishda turli xildagi materiallardan

foydalanish usullari ko'rsatilgan. O'quvchilarning og'zaki va yozma shakllaridan to'g'ri qisqa va aniq sodda va obrazli usul jihatdan ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan qator tavsiyalar taklif qilingan.

Fe'llarning yasalişini o'tishda noan'anaviy usullardan foydalangan holda dars o'tish bayon qilinib, bu bilan o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini oshirish yo'llari tavsiya qilingan.

Bitiruv ishda o'yin-topshiriqlardan na'munalar berishda faqat fe'llarning yasalişiga bag'ishlangan topshiriqlar keltirilganda edi ishning saviyasi yanada oshgan bo'lardi. Lekin talabaning dars o'tishda no'anaviy usullardan foydalanishga oid fikrlari taqsimga loyiq Umuman olganda Umida Umarovanning "Fe'lning yasaliş usullari ustida ishlash" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yuqori saviyada yozilgan. Unda keltirilgan fikrlar ishning ilmiyligini yanada oshirgan. Men ushbu ishni yuqori darajada yozilgan ishlardan biri sifatida baholashni YaDA hay'ati azolaridan so'rayman.

Taqrizchi:

katta o'qituvchi L.Ibragimova